










Nogironligi bor insonlarning doktorantura bosqichiga kirishidagi imtiyozlari



Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlarning **tayanch doktorantura bosqichiga kirishdagi imtiyozlari** haqida bilib olasan.
	**Tayanch doktorantura** – bu universitetda bakalavr va magistratura bosqichini tugatgandan keyin o‘qiladigan bosqich.
	Sen qaysidir sohada doktorantura bosqichini tugatsang senga yuqori ilmiy daraja beriladi.
	**Doktoranturaning bosqichlari:** • Tayanch doktorantura • Doktorantura • Mustaqil izlanuvchi.


	Nogironligi bor insonlar uchun tayanch doktoranturaga kirishda **alohida imtiyozli o‘rin ajratilmaydi.**
	Prezidentning 407-sonli qaroriga ko‘ra, magistratura va doktoranturaga kirishda: ● ko‘rish bo‘yicha ● eshitish bo‘yicha ● gapirishi bo‘yicha nogironligi bor insonlardan **chet tili sertifikati** so‘ralmaydi.
	**Chet tili sertifikati** – bu sen boshqa tilni qanday bilishingni tasdiqlaydigan hujjat.
	Masalan: ● Senda eshitish bo‘yicha ikkinchi guruh nogironligi bor. ● Sen tayanch doktoranturaga hujjat topshirishda nogironlik hujjatingni ko‘rsatsang sendan chet tili sertifikati so‘ramaydi.

	Senda • ko‘rish bo‘yicha • eshitish bo‘yicha • gapirish bo‘yicha nogironlik bo‘lsa, imtihonlarni **og‘zaki yoki yozma** topshirishni tanlashing mumkin.
	Senda eshitish va gapirish bo‘yicha nogironlik bo‘lsa, sen uchun imtihonlarda **imo-ishora tili tarjimoni** bo‘lishi kerak.
	Vazirlar Mahkamasining 304-sonli qaroriga ko‘ra **tayanch doktoranturaga kiruvchi yoki mustaqil izlanuvchilarga qo‘yiladigan talablar:** • magistratura, klinik ordinatura yoki mutaxassislik bo‘yicha universitet diplomi • ilmiy natijaga erishgan dissertatsiya • ilmiy jurnallarda chiqarilgan maqola • konferensiyalarning ilmiy ish to‘plamlarida chiqqan kamida 2 ta tezis **bo‘lishi kerak.**

	Tezis – bu: ● ilmiy asar, ● maqola ● ma’ruzadagi asosiy g‘oyalarning qisqa shakli.
	Tayanch doktorantura bosqichida **3 yil** o‘qiladi.
	Tayanch doktorantura bosqichida senga davlat **stipendiya beradi**.
	Hozirda Tayanch doktorantura uchun stipendiya: ● **6 550 000** (olti million besh yuz ellik ming) so‘m.
	Mustaqil ilmiy izlanuvchilarga **stipendiya berilmaydi.**

	Vazirlar Mahkamasining 304-son qaroriga ko‘ra: • sen mustaqil izlanuvchi bo‘lish uchun ilmiy tashkilotga ariza berishing kerak. (ariza namunasi 1-ilovada)
	Sen ilmiy tashkilotga **my.gov.uz internet tizimi** orqali ham murojaat qilishing mumkin.
	**Sen arizaga qo‘shib topshiradigan hujjatlar:** • o‘zing haqingda ma’lumotnoma • magistrlik, klinik ordinatura (tibbiyot fanlari uchun) yoki oliy ma’lumot haqidagi diplomdan nusxa • ishlaganlik haqidagi hujjatdan nusxa • ilmiy ishlar ro‘yxati • ilmiy ishlardan nusxa • ish joyidan tavsifnoma
	Sen tayanch doktoranturaga kirmoqchi bo‘lsang, sendan **pedagogik malaka** so‘ralmaydi.

	Sen mustaqil izlanuvchi bo‘lsang, sendan **pedagogik malaka** so‘ralmaydi.
	**Pedagogik malaka** – bu sendagi o‘qitish yoki o‘rgatish qobiliyati.
	Sen doktoranturaga kirish uchun hujjatlarni: • https://phd.mininnovation.uz/ internet manzildan topshirishing kerak.
	Hujjatlarni internet orqali topshirishda qiyinchilik bo‘lsa: • +998 (71) 203-32-23 yoki 590 telefon raqamiga telefon qilishing mumkin.
	Hujjatlarni internet orqali topshirishda qiyinchilik bo‘lsa: • phd@mininnovation.uz elektron pochtasi orqali murojaat qilishing mumkin.

	2024-yilda nogironligi bor insonlar tayanch doktorantura yoki mustaqil ilmiy izlanuvchilik uchun hujjatlarni; • **10-noyabrgacha topshirishi kerak.**
	Universitet va ilmiy tashkilotlar mustaqil ilmiy izlanuvchilikka hujjatlarni **boshqa vaqtda** ham qabul qilishi mumkin.